

# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 19 mart, № 57 (8680) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## O'SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI YO'NALISHI YANADA TAKOMILLASHTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni O'simliklar karantini va himoyasi agentligida bo'lib, sohadagi rejalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi bu agentlik o'simliklar karantini, himoyasi va agrokimyo sohalarida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Shunga muvofiq, tuproq, o'g'itlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibini tahlil qiladi, zararli organizmlar kirib kelishi va tarqalishiga qarshi kurashib, fitosanitar toza mahsulotlar yetishtirilishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda sohada 7 ta yangi axborot tizimi joriy qilinib, 40 ta yo'nalish raqamlashtirildi. Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlarining 20 million dollarga yaqin grant mablag'lari jalb etilib, laboratoriya va uskunalar yangilandi. Hududlardagi statsionar va mobil laboratoriyalar orqali 1 million 40 ming gektar yerning tuproq tahlili o'tkazilib, mineral o'g'itlarni qo'llash me'yorlari ilmiy asosda belgilandi va "uzagrolab.uz" dasturiga kiritildi. Undagi ma'lumot va tavsiyalar orqali fermerlar dala va bog'larga aniq ishlov bermoqda.

Bunday chora-tadbirlar meva-sabzavotlarimiz sifati va xavfsizligida muhim omil bo'lmoqda. Bugungi kunda 80 ta davlatga qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti uchun 620 ta fitosanitar ruxsatlar olingan. "GSP+" tizimi doirasida 200 ming gektar maydon xalqaro talablarga moslashtirilgan. 2023-yilda qishloq xo'jaligi sohasidagi eksport qariyb 2 milliard dollarni tashkil etgan. Lekin aslida eksport salohiyati bundan ancha ko'p.

Shu yil 18-yanvar kuni eksport va sanoat masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida meva-sabzavotchilik sohasidagi chora-tadbirlar ham belgilangan edi. Xususan, O'simliklar karantini va himoyasi agentligiga eksportbop mahsulotlar ekilishini tashkillashtirish hamda yangi salohiyatli bozorlar topish bo'yicha vazifa qo'yilgandi.

Taqdimotda shu borada qilinayotgan ishlar va rejalar haqida axborot berildi.

Loyihalardan biri "Agroko'makchi" mobil ilovasi bo'lib, unda o'simliklar himoyasi, bu sohadagi xizmatlar, foydali ma'lumotlar, eksport bo'yicha maslahatlar bilan tanishish mumkin.

"Asiaexport.se" platformasi esa yurtimizdagi eksportchilar bilan chet eldagi xaridorlarni o'zaro bog'laydi. Unda nafaqat meva-sabzavotlar va quritilgan mevalar, balki sharbatlar, uy-ro'zg'or buyumlari, qandolatchilik, to'qimachilik, charmdo'zlik va farmatsevtika mahsulotlari kabi keng turdagi tovarlar haqida ma'lumotlar joylashtiriladi.

Agentlikning xalqaro "ePhyto solution" innovatsion tizimi doirasidagi hamkorligi haqida ham axborot berildi. Bu tizim orqali 119 ta mamlakat bilan fitosanitar sertifikatlar elektron shaklda almashilmoqda. Joriy yilda yana 8 ta davlatga 25 turdagi mahsulot bo'yicha fitosanitar ruxsatnoma olinadi.

Shu kabi chora-tadbirlar natijasida bu yil qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazish mo'ljallangan.

Davlatimiz rahbari buning uchun, avvalo, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish, fermer va dehqonlarning xabardorligini oshirish zarurligini ta'kidladi.

— Bu sohada huquqiy zamin bor, ko'p davlatlar bilan kelishuvlarga erishganmiz. Lekin eksportchilar mahsulotini qiyinchilik bilan sotyapti. Shuning uchun eksportchilar bilan doimiy "muloqot maydoni"ni tashkil etish kerak. Hokimlar hududda yetishtirilayotgan mahsulotlar, elchilar tashqi bozordagi talab va narxlar bilan eksportchilarni tanishtirib borishi zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz meva-sabzavotlarni qadoqlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

— Qadoqlar xalqaro standartlarga mos, zamonaviy dizaynda, sanoatlashgan tarzda bo'lishi kerak. O'shanda sifat bo'ladi, milliy brend yaratiladi, qo'shilgan qiymat ham baland bo'ladi. Shuning uchun eksportchilarga to'g'ri, tartibli va chiroyli qadoqlashni o'rgatish kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Mahsulotlar yaroqsiz bo'lib qolmasligi, eksportga sifatsiz mahsulot qo'shilib ketmasligi uchun tizimli ishlash muhimligi aytildi.

— Bu borada ham klaster tizimi bo'lishi kerak. Ta'limdan boshlab, mahsulotlarni ekish, o'g'itlash, terib olib, saralashgacha bo'lgan hamma bosqichlarni o'zaro muvofiq va yuqori sifatda yo'lga qo'yish zarur, — dedi Prezident.

Vazirlar Mahkamasiga ushbu tizimni takomillashtirish va eksportni rejali tashkil etish uchun 3 yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali eksport hajmlarini nisbatan qimmat bozorlarga yo'naltirish muhimligi aytildi.

Davlatimiz rahbari agentlikning zamonaviy laboratoriyasi bilan tanishdi. Laboratoriyaning ilmiy salohiyatini oshirish, jahondagi ilmiy yutuqlarni o'zlashtirib, sohaga tegishli idoralarda tezkor tatbiq etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu yerda agrokimyo tizimida qo'llanayotgan texnika va uskunalar ham namoyish qilindi.

Qayd etilganidek, chet eldan yuqori samarali entomofaglar olib kelinib, zararkunanda hasharotlarga qarshi yangi turda kurash yo'lga qo'yilgan. Tajribali ekspertlarni jalb etgan holda har bir mahsulotni yetishtirish, saqlash, qadoqlash va yetkazib berish bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqilgan. 10 ta ko'chma laboratoriya tashkil etilgan.

Bu yil hududlarda 10 ta ko'chma laboratoriya tashkil qilinadi. 6 mingta bog', 3 mingdan ziyod tokzor va dala maydonlari, 344 ta qadoqlash korxonasi xorijiy fitosanitariya talablariga muvofiqlashtiriladi. Pestitsidlar muomalasidagi barcha jarayon raqamlashtirilib, sifatsiz pestitsidlarning yurtimizga olib kelinishi va noqonuniy savdosiga barham beriladi.

Prezident tizimdagi mutaxassislar malakasini oshirish, agentlik xizmatlarining har bir fermer va tomorqa egalariga yetib borishini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA YETAKCHISINI PREZIDENT SAYLOVIDAGI ISHONCHLI G'ALABASI BILAN TABRIKLADI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinni ushbu mamlakat prezidentligiga saylovda qozongan ishonchli g'alabasi bilan dildan qutlab, kelgusi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.**

Davlatimiz rahbari saylovchilarning faol ishtiroki va ovoz berish natijalari rossiyaliklar amaldagi Prezidentga yuksak ishonch bildirayotgani, amalga oshirilayotgan siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni keng qo'llab-quvvatlayotganini yana bir bor tasdiqlaganini alohida ta'kidladi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugun o'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur'atda oshib bormoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, yetakchi korxonalar, ishbilarmon doiralar va hududlar o'rtasida kooperatsiya aloqalari kuchaymoqda. Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etmoqda.

Joriy yilning aprel oyida Toshkentda kooperatsiyaning yangi shakllari va istiqbolli loyihalarini ilgari surish uchun samarali maydonga aylangan navbatdagi "INNOPROM" xalqaro sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tadi.

Telefon orqali muloqot chog'ida bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

**O'zA.**

## QISHLOQ XO'JALIGIDA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-mart kuni qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida investitsiyalar jalb qilish hamda eksportni ko'paytirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.**

O'tgan yili yurtimizda 23 million tonna meva-sabzavot yetishtirilib, oziq-ovqat sanoatida 86 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, buncha mahsulotda 5 milliard dollarlik eksport qilish mumkin edi. Lekin vazirlar va hokimlar ishni to'g'ri tashkil qila olmagani, eksportchilar muammosini hal qilmagani sababli bu ko'rsatkich 2 milliard dollardan oshmagan.

Yig'ilishda eksport tarkibi va geografiyasi tahlil qilindi. Xususan, o'tgan bir yilda Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Kolumbiya, Indoneziya kabi 10 dan ortiq yangi bozorlar ochilib, ularning soni 85 taga yetdi. Lekin eksportning 80 foizi 5 ta davlat bozoriga to'g'ri kelyapti. Shuningdek, 10 turdagi mahsulotning ulushi jami meva-sabzavot eksportida 60 foizni tashkil qiladi.

Har yili qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlashga 700 milliard so'm, ishlab chiqarishni ko'paytirishga 1 trillion so'm yo'naltirilmoqda. Lekin natija shunga yarasha emas. Bu borada 1 million gektar g'alladan bo'shaydigan maydon, 508 ming gektar aholi tomorqasi, 260 ming gektar odamlarga bo'lib berilgan yerlar imkoniyatidan to'liq foydalanilmayapti. Ayrim tumanlar umuman meva-sabzavot eksport qilmagan.

Davlatimiz rahbari bu yil qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat eksportini jadal oshirish uchun yana qanday sharoit kerak bo'lsa, ko'rib chiqishga tayyorligini bildirdi.

— Inflyatsiyani jilovlash va valyuta barqarorligini ta'minlash eksport bilan chambarchas bog'liq. Ko'p mahsulot yetishtirish bilan birga eksportga qulayliklarni kengaytirmasak, natija kutilgandek bo'lmaydi, — dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda eksportchi tadbirkorlar va logistika korxonalari vakillari ishtirok etdi. Prezident ular bilan muloqot qilib, muammo va tashabbuslarini eshitdi.

Jumladan, Germaniya, Vengriya, Polsha, Ispaniya, AQSH va Qozog'istondagi savdo uylarini tadbirkorlar boshqaruviga berish, Nagoya, Mersin, Rotterdam, Sindao, Klaypeda, Doha kabi yirik port shaharlarda savdo uyi ochish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Yaqinda Yuqori Chirchiqdagi Agroxizmatlar markazida xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan ilk xususiy laboratoriya ochildi. Bu yil 8 million dollar investitsiya hisobiga Zangiota tumani, Farg'ona va Samarqand shaharlarida ham xuddi shunday zamonaviy laboratoriyalar ishga tushadi.

Toshkent shahrida Referens-laboratoriya tashkil etilib, xususiy laboratoriyalar ishining xalqaro standartlarga mosligi ta'minlanadi. Bunga Jahon bankidan jalb qilingan mablag'lar hisobidan 12 million dollar beriladi. Bundan buyon, xalqaro tan olingan reagentlar import bojidan ozod qilinadi, ularga majburiy ekologik sertifikat olish talab etilmaydi.

Mutasaddilarga boshqa laboratoriyalarni ham xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, meva-sabzavot sifatiga xorijiy davlatlarning milliy talablarini o'rganib, yurtimiz eksportchilariga yetkazish bo'yicha topshiriq berildi.

Xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish tizimini qayta ko'rib chiqish kerakligi aytildi. Bunda tadbirkorlarning reytingi asos qilib olinadi. Yuqori va o'rta reytingga ega bo'lgan tadbirkorlar uchun ko'rgazmalarda qatnashish xarajati 100 foiz oldindan to'lanadi. Past reytinglilar ko'rgazmada ishtirok etganini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgandan keyin, xarajatining 50 foiz qismi qoplab beriladi.

Ko'plab eksportchi korxonalarni qiynayotgan masala, bu — aylanma mablag'. Shu bois joriy yilda Biznesni rivojlantirish bankidan ushbu maqsadlar uchun 1,5 trillion so'm resurs yo'naltiriladi. Bu mablag'lar evaziga eksportchi korxonaga fermer va tayyorlov ombori bilan tuzgan shartnoma summasining 50 foizigacha imtiyozli kredit beriladi. Kreditlar 18 foiz stavkada 6 oy imtiyozli davr bilan 1,5 yil muddatga ajratiladi.

Ma'lumki, meva-sabzavot sanoat mahsulotlariga qaraganda tez buziladi, sifatini yo'qotadi. Shu bois mahsulot turidan kelib chiqib, yo'qotish miqdori 10 foizgacha belgilanadi. Ho'l meva, sharbat, qandolat, murabbo, jem kabi bir xil haroratda yetkazish talab etiladigan mahsulotlar uchun sovitkichli yuk konteynerlari olib kelinadi.

Tabiiy yo'qotish va sifat buzilishini kamaytirish uchun qadoqlashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bu yo'nalishda zamonaviy korxona tashkil qilib, tajribali dizaynerlarni jalb etish muhimligi ta'kidlandi.

Aholi tomorqalari va ekin yerlarida sarxil meva-sabzavotlar yetishtiriladi. Ularni naqd pulga sotib olib, eksportga tayyorlab beradigan ta'minotchilar ko'p. Endi ular o'zini o'zi band qilgan shaxslar kabi faoliyat yuritadi va aylanmasidan qat'i nazar, barcha soliqlardan ozod bo'ladi.

Yig'ilishda oziq-ovqat sanoatidagi imkoniyatlar ham tahlil qilindi.

Joriy yil bu yo'nalishda kamida 100 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va 1 milliard dollar eksport qilish, hududiy dasturlar doirasida 833 million dollarlik 528 ta loyihani ishga tushirish reja qilingan. Bu sohadagi loyihalarga yo'naltirish uchun banklarga 310 million dollar mablag' taqsimlangan. Ushbu choralar orqali tayyor oziq-ovqat eksportini 200 million dollarga olib chiqish imkoniyati borligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalardan kelib chiqib, meva-sabzavot va oziq-ovqat eksporti bo'yicha Bosh vazir rahbarligida komissiya tuzilishi belgilandi.

Shuningdek, ekishdan boshlab, mahsulotni saqlash, qadoqlash, qayta ishlash va sotish zanjirini to'liq qamrab oladigan uch yillik dastur tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi eksporti bilan shug'ullanuvchi 2 ming 362 ta korxonaga ko'maklashish, ularning safini kengaytirish choralari ko'riladi. Eksportchilar bilan doimiy "muloqot maydoni" yaratilib, hududlarda mavjud mahsulotlar, tashqi bozordagi talab va narxlar to'g'risida ma'lumot almashib boriladi.

**O'zA.**

### Jarayon

## SENAT RAISI BOSHCHILIGIDAGI YANGI KOMISSIYA FAOLIYATINI BOSHLADI

*Yodingizda bo'lsa, shu yil 7-mart kuni mamlakatimiz Prezidenti Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda Senat Raisi boshchiligida maxsus komissiya tuzilib,xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha ishlar mutlaqo yangicha yondashuvlar hamda tizim asosida tashkil etilishini ma'lum qilgan edi.*

Viloyat, tuman, shahar hokimlari, hokimliklar xotin-qizlar ishlari bo'yicha o'rinbosarlari hamda faol ayollar komissiya bilan birgalikda joriy yilda 9 442 ta mahalladagi 580 mingga yaqin ishsiz ayollarning bandligini ta'minlashga mas'ul etib belgilanishi, bir oy muddatda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha alohida dastur qabul qilinishi aytib o'tilgandi.

➔ 2

### Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## AHOLI MANFAATLARIGA QARATILGAN DASTURIY MAQSADLAR

*Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Unda intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish, sport sohasida korrupsiyaning oldini olish, shaharsozlik sohasida muhim o'zgarishlarni tatbiq etish, pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasiga chek qo'yishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Muhokamalarda qonun loyihalarining hayotiy zarurati, konseptual jihatlariga e'tibor qaratilib, ularni takomillashtirishga oid muhim taklif va tavsiyalar ilgari surildi.*

➔ 2

### Umumxalq hashari

## OBOD VA FAYZLI MAHALLA — YURT KO'RKI

*Xalqimizning necha asrlardan buyon yashab kelayotgan ezgu qadriyatlari ko'p. Shulardan biri — hashar. Negaki,ana shu tadbir asnosida yon-atrof obodonlashtiriladi,ehtiyojmand insonlardan xabar olinadi,kerak bo'lsa,ularning uy-joyi ko'plashib ta'mirdan chiqarib beriladi.*

Hasharning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, u odamlarni bitta ezgu maqsad yo'lida birlashtiradi, jamiyat hayotida hamjihatlik va ahillik qaror topishi uchun sharoit yaratadi. Buni Navro'z bayrami oldidan o'tkazilgan hashar misolida ham kuzatish mumkin bo'ldi.

— Har yili o'tkazib kelinayotgan umumxalq hasharlari xalqimiz orasida birdamlik, mehr-oqibat va hamjihatlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda, — dedi O'zbekiston mahallalari uyushmasi axborot xizmati rahbari Jobir Asqarov. — Joriy yilda ham Vazirlar Mahkamasining 6-martdagi farmoyishi bilan umumxalq xayriya hasharini o'tkazish belgilangan bo'lib, shu asnosida tayyorgarlik ko'rildi. Natijada 16 — 18-mart kunlari "Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rki" shiori ostida umumxalq xayriya hasharini yuqori saviyada va uyushqoqlik bilan o'tkazib oldik.

➔ 3

## NAVRO'Z RUHI VA FALSAFASI

### XALQIMIZNING OLIYJANOB INTILISHLARIGA G'OYAT UYG'UN VA HAMOHANG







4-sahifaga qarang.

# SENAT RAISI BOSHCHILIGIDAGI YANGI KOMISSIYA FAOLIYATINI BOSHLADI

Aytish joizki, ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan Xalq banki, Biznesni rivojlantirish banki hamda “Mikrokreditbank”ka zarur resurslar ajratildi, shuningdek, xorijiy grant mablag‘larini jalb qilish choralari ko‘rilmoqda.

Bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva rahbarligidagi komissiya zimmasiga yuklatildi.

Shu maqsadda Senat Raisi rahbarligida mutasaddi vazirlik va idoralar, tijorat banklari vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, istiqboldagi vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, 2024-2025-yillarda tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish ishlari boshlandi.

Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi respublika ishchi guruhi xotin-qizlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni mahalladan boshlash maqsadida Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida bo‘ldi.

Dastlab tuman hokimiyatida respublika ishchi guruhi a’zolari, viloyat va tuman mas’ullari bilan uchrashuv o‘tkazilib, aniq vazifalar belgilandi. Aholisi 3 ming nafardan ziyodni tashkil etadigan Qirsadaq mahallasi namunaviy ish ochish uchun tanlab olindi.

Shuningdek, ishchi guruh a’zolari ushbu mahallada bo‘lib, faollar, nuroniylar, otinoyilar, “mahalla yettiligi” bilan uchrashuv uyushtirdi hamda bevosita mahallada amalga oshiriladigan ishlarni kelishib oldi.

Endilikda ishchi guruh a’zolari uyma-uy yurib, xatlov o‘tkazgan holda mahalla aholisining har biri shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlarini aniqlaydi hamda uning natijalari asosida mahallani rivojlantirish rejasini ishlab chiqadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda ijtimoiy himoyaga, tibbiy, psixologik yordamga muhtoj fuqarolarga ko‘mak berish choralarini ko‘radi.

Senat Raisi Qirsadaq mahallasida Navro‘z bayrami arafasida tashkil etilgan umumxalq hasharida ham qatnashdi.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘rganish

# QONUN IJROSI QONIQARLIMI?

*Oliy Majlis Senatining Yoshlar,madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning Navoiy viloyatidagi ijrosi holati o‘rganilmoqda.*

Ishchi guruh tomonidan Navbahor, Xatirchi, Qiziltepa va Konimex tumanlari hamda Navoiy shahar sport ta’lim muassasalari va majmualarida qonun ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi.

O‘rganish jarayonida qonunni ijro etish uchun tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qonunosti va idoraviy normativ hujjatlar mavjudligi va qonun hujjatlari normalariga muvofiqligi, amaliyotda qo‘llanilmayotgan normalar va qonunchilikdagi bo‘shliqlar hamda ijroga to‘sqinlik qilayotgan sabablar va sharoitlarni aniqlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qayd etish joizki, Navoiy viloyatida 25 ta jismoniy tarbiya va sport tashkiloti faoliyat yuritadi. Shundan 13 tasi sport maktabi, 4 tasi ixtisoslashtirilgan sport maktabi va bittasi Navoiy olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida bittadan futbol akademiyasi va maktabi mavjud.

Viloyatda 19 ta sport ta’limi muassasasi bo‘lib, ularda 16 ming 863 nafar sportchi shug‘ullanadi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida 2023-yilda mahalliy byudjetdan 2 840 mln. so‘m, respublika byudjetidan esa 1 876 mln. so‘m yo‘naltirilgan.

O‘tgan yili viloyat shahar va tumanlaridagi 35 ta mahallada umumiy qiymati 6 812 mln. so‘mlik 39 ta sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirilgan.

O‘rganish natijalarini Senat qo‘mitasi va xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining qo‘shma majlisida muhokama etish rejalashtirilgan.

**“Xalq so‘zi”.**

# AHOLI MANFAATLARIGA QARATILGAN DASTURIY MAQSADLAR



## Deputatlik nazorati o‘rnatiladi

**Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida dastlab deputatlar Prezidentimizning shu yil 14-mart kuni Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumaniga tashrifi yakunlaridan kelib chiquvchi ustuvor vazifalarni muhokama qildilar.

Fraksiya a’zolari oxirgi yetti yilda viloyatda tadbirkorlik va fermerlik faoliyati keng rivojlangani, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha salmoqli ishlar bajarilganini e’tirof etarkan, tashrif davomida belgilab berilgan vazifalar partiya va uning fraksiyasi zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklashini qayd etdilar. Bu borada deputatlar yanada faol bo‘lib, ushbu topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini o‘rnatib borishi lozimligi ta’kidlandi.

O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov qayd etganidek, Sayxunobod tomorqachilik rivoji bo‘yicha o‘rtachadan past tumanlar qatoriga kiradi. Mana shu tumanni ko‘tarish orqali qolgan tumanlarda ham ushbu tajribani ommalashtirish, bu orqali odamlarni harakatga keltirish ko‘zlanyapti.

Muhokama chog‘ida davlat rahbari tashrifi yakunlaridan kelib chiqib, ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Yig‘ilishda, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga pirotexnika buyumlari qonunga xilof muomalasining oldini olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga bir qator o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlariga mazkur ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalarni rasmiylashtirish vakolatini berish taklif etilyapti.

Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasini aniqlash hamda ularning oldini olishga, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## Shaharsozlik sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtiriladi

**O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “Sport sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, oxirgi ikki yilda sportni rivojlantirish bo‘yicha 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. So‘nggi besh yilda esa sohaga qariyb 4 trillion so‘m ajratilgan. Bularning barchasi yoshlarni sportga keng jalb qilish, nufuzli xalqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan mashhur sportchilarimiz safini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Loyiha bilan Jinoyat kodeksi tegishli moddalar bilan to‘ldirilib, sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi hamda sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarini pora evaziga og‘dirib olish uchun jinoiy javobgarlik belgilanmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a’zolari Abdumalik Akromov, Umid Jabborov va boshqalar qonun loyihasining ahamiyatiga to‘xtalib, o‘z fikr-mulohazalarini bildirish bilan birga qator savollarni o‘rtaga tashladi. Qonun tashabbuskorlari esa barcha savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o‘tdi.

Yig‘ilishda “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham atroflicha ko‘rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Shaharsozlik kodeksiga O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish tarhlari kabi shaharsozlik hujjatlarining yangi turlari kiritilmoqda.

Fraksiya a’zolari qonun loyihasini konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlab, uning qabul qilinishi shaharsozlik sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga, shaharsozlik hujjatlarining yangi turlarini ishlab chiqishga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishini qayd etdilar.

Yig‘ilishda deputatlar tomonidan bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

## Intellektual mulk egalari huquqlari ta’minlanadi

**O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqildi.

Muhokamada ta’kidlanganidek, iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyati va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning qo‘shimcha qiymat bilan sotilishini ta’minlashda intellektual mulkni ishonchli huquqiy muhofaza va himoya qilish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslarning intellektual faoliyati natijasida yaratilgan mulkning daxlsizligini kafolatlash, jamiyatda huquqbuzarliklarga qarshi toqatsizlik munosabatini shakllantirish hamda fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilishdan manfaatdorligini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlarni qonunchilikda mustahkamlash talab etilyapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarini ishonchli huquqiy himoya qilish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish, tegishli huquqlarni himoya qilishda tomonlarning manfaatdorligini oshirish belgilanmoqda.

Shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi fuqarolik-



huquqiy munosabatlarni takomillashtirish, qonunga xilof ravishda foydalanish natijasida yetkazilgan zarar o‘rniga tovon talab qilish tartibini, bunda birinchi navbatda, huquq egasining manfaatdorligini oshirishga qaratilgan yangi tartiblarni joriy qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Tadbir davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida loyihaning birinchi o‘qish muhokamasida bildirilgan takliflar e’tiborga olingani va loyiha matnida o‘z aksini topganligini alohida qayd etdi.

## Qonunchilikda har bir masala muhim

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Shaharlar va shaharlar atroflarining bosh rejalari eskirgani va ularning yangi bosh rejalarini ishlab chiqish ko‘p vaqt talab etishi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishni to‘xtatib turish imkoniyati yo‘qligi bois shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish talab etilmoqda.

Loyiha tashabbuskorlarining aytishicha, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga shaharlarning bosh rejalarini soddalashtirilgan ko‘rinishda ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachi va loyiha tashkilotiga loyihalash topshirig‘ini berish vakolatini taqdim etish nazarda tutilmoqda.

Deputatlar amaldagi me’yoriy hujjatlardan kelib chiqib, ayrim savollar bilan mas’ullarga yuzlandi.

Xususan, fraksiya a’zosi Sharofiddin Nazarov loyihada O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish ko‘zda tutilayotgani, amaldagi qonunchilikka ko‘ra esa aholini joylashtirish bosh tarhini ishlab chiqish nazarda tutilganini qayd etdi. Shuningdek, deputat hududlarni rivojlantirishda bir qancha tushunchalar borligiga to‘xtalib, ularni aniqlashtirish zarurligiga urg‘u berdi.

Adliya vaziri o‘rinbosari Alisher Karimovning ma’lum qilishicha, taklif etilayotgan norma umumiy qoida sifatida kiritilyapti. Ya’ni hududni rivojlantirishni rejalashtirish nazarda tutilgan. Qaysidir hududga ijtimoiy obyektlar joylashishi, boshqa bir hududga tadbirkorlik zonalarini tashkil etish bilan bog‘liq umumiy qoidalarni belgilashga qaratilgan me’yor hisoblanadi. Ushbu modda orqali qayerga tadbirkorlik subyekti kerak, qaysi joyda maktab va bog‘chaga ehtiyoj borligidan kelib chiqib, hududni rivojlantirish rejasi tasdiqlanadi.

O‘z navbatida, deputat qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida ushbu moddani o‘zgartirib, “O‘zbekiston Respublikasida hududiy rivojlantirishni rejalashtirish”, deb yozish to‘g‘ri bo‘lishini bildirdi. Shuningdek, hududiy rivojlantirishni ishlab chiqish zarurligi, bunda demografik o‘sish, geografik joylashuv, iqlim va boshqa barcha jihatni inobatga olish kerakligi qayd etildi.

Muhokamada qonun loyihasini yanada takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar almashildi. Bildirilgan takliflar kelgusi o‘qishgacha ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishi aytilib, qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

## Inson sog‘lig‘i xavfsizligi — asosiy vazifa

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasining oldini olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasining oldini olish, ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun munosib javobgarlik choralarini belgilash hamda ushbu huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan.

Loyiha bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, jumladan, ularni noqonuniy ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, olib chiqish, o‘tkazish yoki olib kirish uchun amalda belgilangan javobgarlik sanksiyalari kuchaytirilmoqda.

Fraksiya a’zolarining qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasini aniqlash hamda ularning oldini olishga, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki xavfsizligini ta’minlashga, jamoat tartibini saqlashga, yong‘inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Zero, aholi salomatligini muhofaza qilish masalasi partiya dasturiy maqsadi va elektorat manfaatlariga to‘la mosdir.

*Fraksiyalar yig‘ilishlarida muhokama qilingan qonun loyihalari qo‘llab-quvvatlandi, shuningdek, ko‘rib chiqilgan boshqa masalalar bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.*

**“Xalq so‘zi”.**



# FRAKSIYALAR HAYOTI

## O‘zLiDeP

Yaqinda deputatlar tomonidan Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi faoliyatiga oid qonun loyihasi qizg‘in muhokama qilindi.

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Zafar Xudoyberdiyev** qonun loyihasi birinchi o‘qishda kiritilganida iqtisodiy ta’siri past holatlar bo‘yicha birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik subyektiga moliyaviy sanksiya qo‘llanilmasligi va ularga nisbatan profilaktik tushuntirish tadbirlari amalga oshirilishi qayd etilganiga to‘xtalib o‘tdi.

*“Loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida esa mas’ul qo‘mita o‘zgartirish kiritib, “iqtisodiy jihatdan past ta’sir darajasiga ega bo‘lgan holatlar” degan atamalarni shakllantirgan. Birinchi o‘qishdagi shakli g‘aliz keltirilgani ushbu o‘zgartirishga sabab bo‘lgani aytilmoqda. Vaholanki, 20 yildan buyon qonunlarimizda qo‘llanilib kelinayotgan “iqtisodiy ta’siri past” tushunchasi bugungi kunga kelib, g‘aliz keltirilgan deyilishiga qo‘shilmayman”*, dedi deputat.

## “Milliy tiklanish” DP

O‘zbekiston “Milliy tiklanish demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **O‘ktam Islomov** “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi muhokamasida Ilmiy kengash a’zolarining yarmidan ko‘pi mazkur kengashni tuzgan ta’lim muassasasida faoliyat yurituvchi olimlardan iborat bo‘lishi haqidagi talab bekor qilinishini qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

*“Lekin asos sifatida ko‘rsatilayotgan qarordagi maqsadga ko‘ra, boshqa muassasalardan keladigan kengash a’zolari 50 foizdan ko‘payishiga erishishdan iborat. Qonun loyihasining hozirgi tahriri bilan yuqoridagi maqsadga yetib bo‘lmaydi. Shuning uchun qonunda aynan bitta muassasadan a’zo bo‘lish yuqori chegarasini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq”*, dedi deputat.

## “Adolat” SDP

“Savdo-sanoat palatasi faoliyatining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasida Savdo-sanoat palatasiga mahalliy Kengash deputatlari bilan birgalikda hududlarda tadbirkorlik sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining natijadorligini tanqidiy muhokamadan o‘tkazishga oid vazifa yuklanishi belgilanmoqda. Qonun loyihasi muhokamasida “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiya a’zosi **Qodir Jo‘rayev** bu bo‘yicha o‘z fikrlarini aytib o‘tdi.

*“E’tibor qilinadigan bo‘lsa, qonunchiligimizda “tanqidiy muhokama” tushunchasiga ta’rif berilmagan. Bundan tashqari, bu kabi qo‘shimchalar mahalliy Kengash deputatlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarga ham tegishli o‘zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Shu bois qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida bu boradagi kamchilikni ko‘rib chiqish lozim”*, dedi deputat.

## O‘zXDP

Yoqilg‘i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlari hamda ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasida O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Anvarxon Temirov** mazkur hujjat iste’mol qilingan energiya resurslari uchun to‘lov intizomini mustahkamlash va qarzdorlikni undirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etishga xizmat qilishini ta’kidladi.

*“Ayni paytda bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: yoqilg‘i va energetika sohalarida raqamlashtirish jarayoni sur’atlarini jadallashtira olganimizda edi, qonunga qo‘shimcha yoki o‘zgartirish kiritishga ehtiyoj ham bo‘lmasdi. Shu bois sohalarga joriy etilayotgan raqamlashtirish ishlarini yanada samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha idora va tashkilotlarning mas’uliyatini kuchaytirishimiz lozim”*, dedi deputat.

## O‘zbekiston Ekologik partiyasi

O‘tgan hafta quyi palatada o‘tkazilgan “Hukumat soati”da O‘zbekiston raqamli texnologiyalar vaziri deputatlarning savollariga javob berdi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Navro‘zbek Yusupov** vazirning mamlakatimizda elektron hukumat tizimini takomillashtirish, davlat organlarining ish faoliyatini raqamli formatga o‘tkazish, ijtimoiy soha obyektlarini Internet jahon axborot tarmog‘i bilan qamrab olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotini qo‘llab-quvvatlagan holda, ayrim e’tirozlarini bildirdi.

*“Hukumat soati”da Ekopartiya deputatlari kutganidek, tabiatni muhofaza qilishga raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring yuritishda inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarga oid javoblarni eshitmadik. O‘ylaymanki, keyingi tadbirlarda bu kabi kamchiliklar takrorlanmaydi”*, dedi deputat.

# IJTIMOIY DAVLATDA XOTIN-QIZLARIMIZ FAOLLIGI OSHADI

*Bugun O‘zbekistonda demokratiya hamda inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona aloqalarni izchillik bilan rivojlantirish, xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishga qaratilgan ezgu sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Ana shu jarayonda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida xotin-qizlarning rolini tubdan oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor.*

## Mushohada

Ma’lumki, bugungi geosiyosiy vaziyat, iqtisodiy noaniqliklar, tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat va suv tanqisligi kuzatilayotgan davrda ijtimoiy himoyaga eng muhtoj qatlam ayollar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar hisoblanadi. Bu esa nafaqat ushbu toifalardagi shaxslarni, balki barcha yurtdoshimizni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va ular baxtli hamda to‘kis hayot kechirishi uchun nimaiki kerak bo‘lsa, hammasini yaratish vazifasini kun tartibiga olib chiqdi.

Yodingizda bo‘lsa, Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida ish boshlagan dastlabki davrdanoq O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurish strategik maqsad etib belgilangandi va tariximizda ilk bora Bosh qomusimizda O‘zbekiston — ijtimoiy davlat deb belgilandi.

Har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, qisqacha aytganda, xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun “ijtimoiy davlat” kerak.

Shu bois ham so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, ular ko‘proq ijtimoiy sohaga yo‘naltirilganligini ko‘ramiz. Natijada oxirgi yillarda ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim berish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a’zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotir.

Asosiysi, bu boradagi islohotlarning nafaqat huquqiy-tashkiliy, balki moddiy asoslari ham yetarli. Davlat byudjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo‘naltirilayotgani ham fikrimni tasdiqlaydi. Joriy yilgi Davlat byudjetida 151,5 trln. so‘m miqdoridagi mablag‘, ya’ni jami xarajatlarning salkam 50 foizi ijtimoiy sohaga yo‘naltiriladi.

### Gender tenglikni ta’minlash — doimiy e’tiborda

Oxirgi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ehtiyojmand opa-singillarimizni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida sa’y-harakatlar tizimlashtirilgani e’tiborga molik. Zero, bu ishlarni yangi pog‘onaga olib chiqish maqsadida 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi.

Xo‘sh, bu borada qanday ishlar qilindi va nimalarga erishdik? Bu haqda gap ketganda, eng avvalo, erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi 18 yosh etib belgilangani, xotin-qizlar mehnati to‘liq yoki qisman qo‘llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo‘lgan ishlar ro‘yxati bekor qilingani, ichki ishlar va Xalq banki tizimida ular bilan ishlash masalalari bo‘yicha inspektor lavozimi joriy etilganini keltirish mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur tasdiqlandi. U bilan xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab olindi va uning ijrosi ta’minlanyapti.



Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda voyaga yetayotgan qizlarga oliy ta’lim muassasasida tahsil olishi uchun 4 foizli kvota ajratildi. 2022-yil 9-fevraldan ayollarga pensiya hisoblashda bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lgan davrini qo‘shib hisoblanadigan ish staji davri 3 yildan 6 yilga oshirildi. 2022-yil sentyabr oyidan xususiy korxona va tashkilotlarda ayollarga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan homiladorlik va tug‘ish nafaqasi belgilandi. 2022/2023 o‘quv yili oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta’lim shartnomasini to‘lash uchun foizsiz ta’lim kreditlari joriy qilindi, magistratura bosqichida o‘qiyotgan opa-singillarimiz shartnoma to‘lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi.

Qolaversa, ehtiyojmand oilalar vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlar ta’lim shartnomalarini mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplash tartibi yo‘lga qo‘yildi. Ayni chog‘da Aliment to‘lovlari jamg‘armasi tashkil etilib, voyaga yetmagan farzandini moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlaganlik uchun qarzdor jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda, aliment to‘lovidan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplab berishga yo‘naltirish amaliyoti joriy etildi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayot va ishbilarmonlik sohasida ayollar rolini tubdan oshirishga ham urg‘u berilayotir. Natijada ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o‘qitish, malakasini oshirish bo‘yicha o‘ziga xos tizim yaratildi. Natija ham chakki emas. Agar 2016-yil yurtimizda rahbar ayollar soni 7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich 12 foiz, 2022-yilda 27 foiz va 2023-yilda 28,2 foizni tashkil etdi. Davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan istiqbolli xotin-qizlarning Yagona elektron bazasi yaratilib, unda rahbarlikka nomzod 25 mingdan ortiq xotin-qizlar zaxira ro‘yxati shakllantirildi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan 100 nafar xotin-qizni bosqichma-bosqich o‘qitish maqsadida “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Ayni paytda bu ayollarning barchasi Milliy kadrlar zaxirasi bazasiga kiritilgan.

### Huquqiy asos tadrijiy mustahkamlanmoqda

Keyingi yillarda barcha sohada gender tenglikni ta’minlashning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash borasida salmoqli ishlar qilindi. Buni oxirgi bir necha yilda 50 ga yaqin, xususan, 2023-yilning o‘zida 13 ta normativ-huquqiy hujjat — 3 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta Farmoni va 2 ta qarori hamda hukumatning 6 ta qarori qabul qilingani misolida ham ko‘rish mumkin.

Xususan, “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunda jinsiy zo‘ravonlik, jumladan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik sodir etganlarga nisbatan javobgarlik chorasi kuchaytirilishi bilan birga, ushbu toifadagi jinoyatlar uchun qonunchilikda ko‘zda tutilgan yengilliklar berilmasligi, jazoni o‘tashda muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish, yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish kabi choralar qo‘llanilmasligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Jins bo‘yicha kamsitishni targ‘ib qilish, shu jumladan, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ochiqdan-ochiq inkor etish, ushbu mazmundagi qarashlar, g‘oyalar va chaqiriqlarni tarqatish bo‘yicha ma’muriy javobgarlik belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan 40 foiziga oshirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritildi.

Genderga oid audit o‘tkazilishi qonunchilik bilan mustahkamlanib, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi tomonidan shu auditni o‘tkazish uslubiyati hamda uch yillik rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi doirasida saylov jarayonlariga xotin-qizlar va erkaklarni teng asosda jalb qilish, saylov komissiyalarini shakllantirish uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovning barcha bosqichida xotin-qizlar va erkaklarning teng asosda ishtirok etishini kuzatuvchi 11 ta indikator ishlab chiqildi.

Ko‘rinib turibdiki, bu boradagi huquqiy me’yoriy tadrijiy takomillashtirib borilmoqda.

### “Ayollar daftari” tizimining 5-bosqichi boshlandi

Sir emas, inson qadrini ulug‘lash, aholini, ayniqsa, xotin-qizlarni hayotdan rozi qilish, muammolarini manzilli, ijobiy, samarali va joyida hal etish borasida noyob tizim — “ayollar daftari” muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ushbu tizimning 5-bosqichi boshlandi.

“Ayollar daftari” bo‘yicha tuzilgan Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika komissiyasi tomonidan doimiy ravishda monitoring olib borilmoqda. Har bir komissiya a’zosi hududlarga mas’ul etib belgilangan, o‘zim esa Sirdaryo viloyatiga biriktirilganman.

Ta’kidlash joizki, 2023-yil davomida “ayollar daftari” tizimining 4-bosqichida 6 ta toifa bo‘yicha 1 millionga yaqin xotin-qizlarning muammolari hal etildi.

*Xususan:*

*1-toifa bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan 423 196 nafar ishsiz xotin-qiz bandligi ta’minlandi;*

*2-toifa bo‘yicha 48 913 nafar opa-singlimizga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishi uchun jami 448,1 mlrd. so‘m miqdorida kreditlar ajratildi;*

*3-toifa bo‘yicha boquvchisini yo‘qotgan, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan 224 397 nafar xotin-qizga 225,1 mlrd. so‘m miqdorida moddiy yordam berildi;*

*4-toifa bo‘yicha ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan va tezkor tibbiy muolajaga muhtoj 201 889 nafar ehtiyojmand xotin-qizga 206,1 mlrd. so‘m miqdorida moddiy yordamlar ko‘rsatildi;*

*5-toifa bo‘yicha uy-joyga muhtoj 8 656 nafar xotin-qizning uy-joy sharoitini yaxshilash choralari ko‘rildi;*

*6-toifa bo‘yicha qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud 86 335 nafar xotin-qizga 85,8 mlrd. so‘m miqdorida moddiy yordamlar ko‘rsatildi.*

E’tiborlisi, bu boradagi sa’y-harakatlarimiz BMT global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlikda amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan e’tibor xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Jahon banki tomonidan e’lon qilingan indeksda O‘zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi.

Umuman, so‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlari hamda gender tenglikni ta’minlash, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada oldimizga yangidan-yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Bu esa biz, senatorlardan mazkur jarayonlarda yanada faol bo‘lishni talab etadi.

**Malika QODIRXONOVA,**
**Oliy Majlis Senatining**
**Xotin-qizlar va gender tenglik**
**masalalari qo‘mitasi raisi.**

# ILDIZLARI TUTASH CHINORLAR

*O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlarining ilm-fani, qadriyatlari, tili va adabiyoti, san’ati va madaniyati uyg‘un o‘zanlarda shakllanib, rivojlangan. O‘zbekistonda Nizomiy Ganjaviy, Imomiddin Nasimiy, Muhammad Fuzuliy asarlari qanchalik sevib o‘qilsa, Ozarbayjonda Alisher Navoiy dahosiga munosabat milliy iftixor darajasiga ko‘tarilgan.*

## Qardoshlik rishtalari

Temuriylar saltanati davrida Samarqandda ozarbayjonlik Shoh Fatxulloh Shervoniy, mavlono Fatxulloh Tabib Tabriziy, Ali Muhammad Sayyid Sharif Jurjoniy, Mavlono Xoja Tabriziy kabi qomusiy olimlar mantiq, falsafa, nujum, she’rshunoslik, tilshunoslik kabi turli fan sohalari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Bundan tashqari, yuzlab ozar hunarmandlari, san’atkorlar va shoirlar Samarqandni Yer yuzining sayqaliga aylantirish ishlarida faol ishtirok etgan.

XX asrda ko‘plab ozarbayjonlar o‘z yurtidan majburan yurtimizga ko‘chirilganda o‘zbek va ozar etu tirnoq singari bir-biriga qayishib, hamqadam va hammaslak bo‘lgan. Maqsud Shayxzoda, Faridun Safarov, Eynulla Aliyev, Jafar Abdullayev, Shevket Gudarli, Ko‘keb Aliyeva singari ozar qardoshlarimizning madaniy hayotimizda tutgan o‘rnini xalqimiz unutmaydi. Xususan, shoir, adib, dramaturg Maqsud Shayxzoda badiiy adabiyotimizda birinchilardan bo‘lib buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi shaxsini ulug‘lab “Jaloliddin Manguberdi” va donishmand hukmdor Mirzo Ulug‘bek haqida “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy dramalarini yozdi. U olim sifatida ham navoiyshunoslik taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirdi, “G‘azal mulkining sultoni” kitobida Navoiy ijodini ilmiy tadqiq etib, buyuk bobokalonimizning Sharq she’riyati takomiliga qo‘shgan hissasini ochib berdi. Maqsud Shayxzoda o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining ardoqli va jonkuyar farzandi, uning asarlari esa ikki xalqni birlashtiruvchi ko‘prik bo‘ldi, tarixda qoldi.

O‘zbek va ozarbayjon xalqlarining adabiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari mustaqillik yillari yanada kengaydi. O‘zbekistonda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, xalqaro maqom san’ati anjumani, shuningdek, turli adabiy-ma’rifiy tadbirlarda ozar xalqi vakillarining qatnashuvi, Ozarbayjonda tashkil etilayotgan turli festivallar va anjumanlarda O‘zbekiston vakillarining ishtiroki yaxshi an’anaga aylandi. Ozar xalqi bilan tillarimizning bir-biriga juda yaqinligi, turmush tarzimiz, san’atimiz, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotimizdagi mushtaraklik bugun birodarlik tuyg‘ularining o‘zgacha ruhda yanada kuchayishiga turtki bermoqda.

Davlatimiz rahbarining siyosiy donoligi va qardosh xalqlarni o‘zaro jipslashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlari tufayli so‘nggi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasida ko‘p qirrali aloqalar o‘rnatildi.

2022-yil 21-22-iyun kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida ikki mamlakat o‘rtasida strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida deklaratsiya imzolandi. Shuningdek, ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari o‘rtasida 18 ta hujjat imzolandi. Hududlararo aloqalar, sanoat, xalqaro qatnovlar, turizm kabi sohalar bilan bir qatorda madaniy-gumanitar jabhada ham hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha bitimlar tuzildi.



Ikki millat liderlarining ko‘p qirrali hamkorlikni jadallashtirishga qaratilgan muntazam harakatlari madaniy-gumanitar aloqalarimizning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Toshkentda Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi faoliyati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” majmuasining nashr etilishi, unda Ozarbayjon mumtoz va zamonaviy adabiyoti vakillariga keng o‘rin berilgani, Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug‘bek nomidagi maktabning qurilishi, Ozarbayjonda O‘zbekiston adabiyoti va madaniyati, O‘zbekistonda Ozarbayjon madaniyati va adabiyoti kunlarining muntazam o‘tkazib kelinayotgani ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarining tobora mustahkamlanib borayotganiga dalolat.

Keyingi yillarda o‘zbek va ozar olimlarining yaqin hamkorligi ham shu o‘zanda o‘z natijalarini bermoqda. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti olimlarining yaqindan hamkorlik o‘rnatishi uzoq yillar muqaddam mavjud bo‘lgan va ayrim sabablarga ko‘ra sustlashib ketgan ilmiy-adabiy aloqalarning tiklanishiga olib keldi. Jumladan, universitetimizda Muhammad Fuzuliy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutida Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek adabiyoti tadqiqotlari markazi ochildi. 2023-yilda Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutida “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro konferensiyasi o‘tkazildi. Hammualliflikda ozar — o‘zbek adabiy aloqalari haqida kitoblar yozildi. Ikki xalq mutafakkir shoirlari, mumtoz va zamonaviy adabiyot namoyandalarining tavallud kunlari munosabati bilan muntazam ravishda qo‘shma ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish an’anaga aylandi.

Joriy yilning 3 — 7-mart kunlari universitetimiz olimlarining Ozarbayjonga uyushtirgan safari o‘zaro aloqalarimiz tarixida yangi sahifa ochdi. Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Adabiyot instituti tashkil etilganiga 90 yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimda qatnashib, qator davra suhbatlari, adabiy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish sharafiga muyassar bo‘ldik. Har bir uchrashuv ozarbayjonlik do‘stlarimiz bilan yanada yaqin tanishish, yangi ilmiy g‘oyalarni muhokama qilish va kelgusi rejalarimizni belgilash uchun yaxshi imkoniyat bo‘ldi.

Safarimiz davomida Nasimiy nomidagi Tilshunoslik instituti ilmiy jamoasi tomonidan ozarbayjon tilida nashr etilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” kitobi taqdimotida ham qatnashdik. Qayd etish lozimki, “Devoni lug‘otit-turk” tom ma’noda ildizi va qadriyatlari bir bo‘lgan turkiy xalqlar tili va tarixini o‘rganishda g‘oyat muhim manba. Dunyo turkologlarining doimiy diqqat markazida bo‘lgan ushbu asar islomgacha bo‘lgan davrda turkiy xalqlarning madaniyati, boy ma’naviy merosi, yashash tarzi haqida ma’lumot berishi bilan, ayniqsa, qimmatlidir. Mazkur nashr 1937-yil o‘zbek ma’rifatparvar jadidchilaridan bo‘lgan Xolid Saidxo‘jayev tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima qilingan matn asosida tayyorlangan. Xolid Saidxo‘jayev 1918-yil jadidchilik harakatiga qarshi qatliom boshlanganda O‘zbekistondan Ozarbayjonga ko‘chgan, ammo bu yerda ham mustabid tuzum qatag‘oniga uchrab 1937-yil otuvga hukm etilgan. Olimning ushbu tarjimasi qariyb 100-yil davomida noma’lum bo‘lib, institut tomonidan olib borilgan uzoq izlanishlardan so‘ng topildi.

Ozarbayjonning Ganja shahri turkiyzabon va forsiyzabon adabiyot klassigi Nizomiy Ganjaviyning vatani o‘laroq Sharqda ma’lum va mashhur. Alisher Navoiy uni o‘ziga ustoz deb bilgan va shunday ta’riflagan edi:

***Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez,***
***Xotiri ganjuru tili ganjrez.***

Ganja qadimdan ilm-ma’rifat markazi bo‘lib, bu yerdan ko‘plab olimu adiblar, san’atkoru hunarmandlar yetishib chiqqan. Shunday ulug‘ insonlardan biri — atoqli navoiyshunos olim, akademik, fan arbobi, o‘zbek — ozar adabiy aloqalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan yirik adabiyotshunos Hamid Araslidir. Olim V. Zohidov, V. Abdullayev, Oybek, G‘. G‘ulom, H. Sulaymon singari o‘zbek olimlari bilan doimiy hamkorlik qilgan, o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari, xususan, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro hayoti hamda ijodi bo‘yicha qimmatli tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunos sifatida o‘zbek ilmiy-adabiy muhitiga yaxshi tanish. Bundan tashqari, Hamid Arasli turkiy xalqlar og‘zaki ijodining ham yirik tadqiqotchilaridan biri. U birinchilardan bo‘lib “Kitobi dada Qo‘rqut”, “Go‘ro‘g‘li” singari xalq og‘zaki ijodi namunalarini ilmiy tadqiq qildi, shuning barobarida o‘zbek folklorini o‘rganishga ham munosib hissa qo‘shdi. Ushbu zahmatli va salmoqli ilmiy izlanishlari uchun 1968-yilda unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni berildi, ayni shu yilda Ozarbayjon Fanlar akademiyasi akademigi bo‘ldi.

Biz safar oldidan Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ganja bo‘linmasi tomonidan 6-mart kuni akademik Hamid Arasli tavalludining 115-yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferensiyaga taklif etilganimiz bois o‘zbek — ozar adabiy aloqalari targ‘ibotchisi, o‘zbek xalqining ulug‘ do‘sti yubileyida ham qatnashish imkoniyati tug‘ilganidan juda xursand bo‘ldik.

Konferensiyada o‘zbek olimlari ma’ruzalarini ishtirokchilar katta qiziqish bilan tingladi. Ma’ruzalarda Hamid Araslining o‘zbek olimlari bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqot ishlari, adabiy aloqalarni rivojlantirishdagi buyuk xizmatlari alohida e’tirof etildi.

Safarimizning oxirgi kuni akademiyaning Ganja viloyati bo‘linmasida ganjalik olimlar va ziyolilar bilan uchrashuv tashkillashtirildi. Bu ham o‘ziga xos ramziy ma’noda hazrat Navoiy va Nizomiy avlodlarining bir-biriga mehrli munosabatlari namoyishi bo‘ldi.

Uchrashuvda Ganja universiteti, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasining Ganja bo‘limi hamda Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti olimlari hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha fikr almashdi. Suhbat jarayonida biz O‘zbekiston davlati Prezidentining milliy madaniyatimizni targ‘ib etish masalalariga jiddiy e’tibori, bir necha qarorlarida, jumladan, joriy yilning 12-yanvar kuni qabul qilingan “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti zimmasiga xorijda Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va madaniyati markazlarini tashkil etish topshirilgani va bu borada oliygoh tomonidan erishilgan natijalar haqida batafsil axborot berdik.

Yig‘ilish ishtirokchilari bir ovozdan Ganja shahrida Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va madaniyati markazini ochish taklifini qo‘llab-quvvatladi. Shu kuni universitetimiz va akademiyaning Ganja viloyati bo‘linmasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik haqida imzolangan memorandumda markaz ochish ishlarini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh vazifalari belgilandi hamda joriy yilning oxirgi choragida Ganjada Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va madaniyati markazining rasmiy ochilish marosimini o‘tkazishga kelishildi.

Muxtasar aytganda, Ozarbayjonda bo‘lib turgan kunlarimizning hech bir soniyasi mazmunsiz o‘tmadi, desak bo‘ladi. Rejalashtirilgan rasmiy tadbirlar orasida olimlarimiz Ozarbayjondagi bir necha universitetlar va ilmiy markazlarda bo‘lib, ma’ruzalar o‘qishga muvaffaq bo‘ldi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon davlat rahbarlarining do‘stona munosabatlari hamda samarali hamkorligi xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniy almashinuv va do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, shu yo‘nalishda yuksak natijalarga erishishning yangi ufqlarini ochib berdi. Ikki qardosh xalqning madaniyati va san’ati asrlar davomida yonma-yon rivojlanib, bir-birini o‘zaro boyitib, to‘ldirib kelayotgani birgalikda o‘tkazilayotgan turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Endigi bosqichda oddiy xalq ichiga ko‘proq kirsak va xalqimiz madaniyatini tanishtirish ishlarida keng aholi qatlamini qamrab olsak, ishonamizki, har bir ozar oilasida O‘zbekistonga kelish, o‘ziga tanish bo‘lgan qadriyatlarni kashf etish istagi tug‘iladi. Zero, hammamizning maqsad va intilishlarimiz bir, darvozalarimiz bir-birimiz uchun doim ochiq. Mehr ko‘zda, deyishadi. Azaldan do‘st-birodar bo‘lgan xalqlarning bugungi tahlikali zamonda yana qayta topishishi, umumiy maqsadlar yo‘lida qo‘lni-qo‘lga berib, olg‘a intilishi bizga quvonch bag‘ishlaydi. Ikki davlat o‘rtasida ishonch va yuksak hurmatga asoslangan o‘zaro manfaatli hamda samarali hamkorlik poydevori mustahkam o‘rnatilganiga amin bo‘lamiz.

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik.**

# OBOD VA FAYZLI MAHALLA — YURT KO‘RKI



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

1

Bu yilgi hashar tadbiri davomida “mahalla yettiligi” o‘z hududining obod-ligiga har doimgidan-da ko‘proq e’tibor qaratganini ta’kidlash zarur.

Umumxalq xayriya hashari tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida har bir mahallada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tuzilgan bo‘lib, shu asosda ish olib borildi. Mahallalar, aholi punktlari, ko‘p qavatli uylar, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar hamda bolalar maydonchalari tartibga keltirildi. Ayni chog‘da ijtimoiy soha muassasalari, korxona va tashkilotlar hamda boshqa tadbirkorlik obyektlari atroflari obodonlashtirildi va ko‘kalamzorlashtirildi. Qabriston, masjid hamda muqaddas qadamjolar, ariqlar, tomorqa va yo‘laklar tozalandi, maishiy chiqindilar chiqarib tashlandi, bozorlar hududi, ularning atroflari orasta qilindi, binolari oqlandi va ranglar bilan bo‘yaldi, daraxt va butalarga shakl berildi.

Yana bir yangilik sifatida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan birgalikda “Mahallamga 10 tup daraxt — mening tuhfam” shiori ostida barcha turarjoy mavzelari va mahallalarda iqlim sharoitiga mos hamda sug‘orish tizimini hisobga olgan holda daraxt ko‘chatlari ekish ishlari o‘tkazilganini ham aytib o‘tish joiz.

Qolaversa, umumxalq hashari davomida joylardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar vakillarini to‘liq qamrab olish maqsadida bu boradagi ishlar ko‘chabay, xonadonbay asosida olib borildi va bunga “mahalla yettiligi” a’zolari, ko‘cha va uyboshilar bosh-qosh bo‘ldi.

“Mahalla” xayriya jamoat fondi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari ro‘yxati shakllantirilib, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan uy-joy sharoitlarini yaxshilash hamda moddiy yordam ko‘rsatish yumushlari bajarildi.

E’tiborlisi, hashar tadbirlari yurtimizning barcha hududida yuqori saviyada o‘tkazildi.

Umuman olganda, Navro‘zi olam oldidan tashkil etilgan bu ezgu tadbir esda qolarli voqealar va natijalarga boyligi bilan ham alohida ajralib turdi. Muhimi, ushbu ezgu amallar tufayli qanchadan-qancha ko‘ngillar hamda manzillar obod bo‘ldi. Demak, erta-indin kirib keladigan Navro‘zi olamni ana shunday fayzli va obod manzillarda ko‘tarinki kayfiyatda kutib olamiz.

**“Xalq so‘zi”.**



# NAVRO'Z RUHI VA FALSAFASI

## XALQIMIZNING OLIYJANOB INTILISHLARIGA G'OYAT UYG'UN VA HAMOHANG

*Prezidentimizning "2024-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida kelayotgan ushbu ayyomning mamlakatimizda "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko'tarinki ruh va yuqori darajada keng nishonlanishi belgilab berildi.*

*Davlatimiz rahbarining qarorida ona zamin va tabiatga mehr-muhabbat, saxovat va muruvvat, bunyodkorlik va oliyjanoblik kabi xalqimizga xos ezgu fazilatlar eng qadimiy bayramimiz bo'lgan Navro'z timsolida asrlar davomida ulug'lanib, sayqal topib kelayotganiga alohida e'tibor qaratilgan.*

### Shukuh



Qarorda jamiyatimizda inson qadri yuksalib, bebaho boyligimiz — yerimiz, suvimiz va tabiatimizga, shu boradagi necha ming yillik an'analarimizga e'tibor kuchayib borayotgan yangi O'zbekiston sharoitida bu bayramning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati yanada ortayotgani alohida ta'kidlangan.

Qayd qilinganidek, dunyoda murakkab vaziyat hukm surayotgan hozirgi tahlikali davrda Navro'zning buyuk insonparvarlik mohiyati, o'lmas g'oyalari, odamzodni tinchlik va do'stlikni qadrlab, o'zaro ahillik va hamjihatlikda yashashga, hayotni yanada go'zal va obod qilishga undaydigan bunyodkorlik ruhi va falsafasi Yer yuzidagi turli xalqlarning oliyjanob intilishlariga ham g'oyat uyg'un va hamohangdir.

Tabiat inson uchun tiriklik, mavjudlik manbaigina emas, hayot sabog'i, tajriba, bilim bulog'idir. Ajdodlarimizning hayotiy xulosalari tabiatdan olingan. Biz bugun amal qilayotgan bilim va ko'nikmalar ota-bobolarimizning, momolarimizning ming yillar davomida tabiatni kuzatish orqali olgan ulgulari, kelgan xulosalari, kelgusi avlodlarga meros qoldirgan qadriyatlariga asoslangandir.

Ajdodlarimiz nimagaki erishgan bo'lsa, tabiatni alqash, ulug'lash, e'zozlash tufayli erishgan. Unga jonli odamdek munosabatda bo'lingan. Bunday mehr-muhabbat tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatnigina saqlab qolmay, inson fe'l-atvori, axloqi, bilimi, dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Shuning uchun Navro'zning kelishi bu shunchaki tabiat yangilanishi emas, balki inson qalbi va ruhiyatining yangilanishi, ayni damda inson va borliq o'rtasidagi uyg'unlikning namoyon bo'lishi hamdir.

Navro'z xalqimizning tarixi, falsafasi, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, millat bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan qomusiy ayyomdir. Ushbu bayram haqida tarixiy, adabiy manbalar ko'p. Mahmud Koshg'ariy, Beruniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning asarlarida va boshqa manbalarida Navro'z, u bilan bog'liq urf-odatlar haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Masalan, Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida ham bu bayramga katta o'rin ajratadi. Uning kelib chiqishi, tarixi haqida fikr yuritadi. Biroq eng muhimi, bu azaliy qadriyatning bizning kunimizgacha yashab kelayotgani, Navro'z bilan bog'liq an'ana, urf-odat va marosimlar hamon elimizning ardog'ida ekanining o'zi eng ishonchli va mo'tabar manbadir.

Dunyo xalqlari turli taqvimlarga amal qilishadi. Bu taqvimlarning eng qadimiysi Sharq xalqlari amal qilib kelayotgan oy, quyosh, yulduzlar harakatiga asoslangan taqvimdir. Ushbu taqvimga ko'ra, Navro'z — tun bilan kun teng kelgan sanadir. Aynan mana shu kuni samoviy jismlar harakatida ulkan burilish yasaladi, tabiatda jonlanish yuz beradi. Zamonaviy ilm-fan bu qarashlar, bu hayotiy bilim mukammal darajadagi aniqlikka ega ekanidan hamon hayratga tushmoqda.

Aynan ko'klam paytida fasllar almashinuvi, tabiatning qayta tirilishi, uni jonlantirish bilan bog'liq qadimiy marosimlar, tomosha san'ati, polvonlar kurashi, baxshilar bellashuvi, sumalak, lola sayillari bo'lib o'tgan. Ushbu marosim va sayillar mohiyatan inson hayotini yanada yaxshilash, tabiat mushkulotlarini yengillashtirish, kelayotgan ko'klam va yangi yilni qutlab, uning qut-barakali o'tishini Yaratgandan so'rash, turli o'yin, harakat, qo'shiqlar asosida kelayotgan yilning qanday bo'lishini chamalab ko'rishga xizmat qilgan. Ushbu e'tiqod va u bilan bog'liq marosimlar tizimi bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

Navro'z bilan bog'liq an'analarning asl mohiyatida quyoshga bo'lgan topinch yotadi. Navro'z bilan bog'liq "Shox moylar", "Qozon to'ldi" kabi marosimlar, "Oq terakmi, ko'k terak?" singari o'yinlar, "Sumalak", "Lola", "Gul" sayillari zamirida ana shu qadim inonch izlari yotadi. Bundan tashqari, yurtimizda quyosh yo'li bilan bog'liq ko'plab manzillar mavjud. Bular — Langar ota, Nurota ziyoratgohlari. Bunday ziyoratgohlar ko'p. Quyosh yo'li manzillari bilan bog'liq ma'lumotlarni dunyoning turli nuqtalaridagi shunga o'xshash yodgorliklarga qiyosan o'rganish masalalari oldimizda turibdi.



Navro'z haqidagi afsonalarning birida ajdodlarimiz temir qoyani eritib, yangi makonga chiqqani, shu kunni yangi kun, yilning boshi deb atagani aytiladi. Temir qoyaning eritilishi, temirchilik sirlarining kashf qilinishi bu, albatta, o'z davri uchun katta bir inqilob, yangi bir tamaddunning boshlanishi edi.

Bugun insoniyat texnika taraqqiyotida juda ilgarilab ketdi, yuksak bir sivilizatsiyaga erishdi. Ana shu evrilishlarda, ana shu tamaddunda qachonlardir omoch haydab, tabiat, koinot haqida tafakkur qilgan ajdodlarimizning ham ulkan hissasi borligini, bu o'lka hamisha ilmu ma'rifat, madaniyat va tafakkur beshigi bo'lib kelganligini unutmasligimiz lozim.

Nima uchun tibbiyot, ilmu nujum, arifmetika va yana qator fanlarga aynan mana shu o'lkada asos solindi? Navro'z tarixini, uning mohiyatini o'rgansak, bu savollarga, albatta, javob topamiz.

Ajdodlarimiz o'zi bilan tabiat o'rtasiga chegara qo'ymagan. Insonni tabiatning bir bo'lagi deb qaragan. Boshi uzra porlagan oy, quyosh va yulduzlar, atrofini o'rab turgan hayvonot va nabototning sirini bilishga intilgan, ulardagi o'zgarishlar inson qalbi va ruhiyatiga ta'sir etishini anglagan. Shu bois tabiatni alqaganlar, samoni ulug'laganlar. "Boychechak" va shunga o'xshash Navro'z bilan bog'liq ko'pgina marosimlar asosida ana shunday tasavvurlar yotadi. Bu katta bir bilim, ulkan hayotiy tajriba edi. Davrlar o'tishi bilan bu bilim tizimga solinib, hayotlariga uyg'un, hamohang holda ezgu qadriyat sifatida avlodlarga meros qoldirilgan.

Navro'z bilan bog'liq qarashlarning asl mohiyatida o'zi nima yotadi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Uning ibtidosida yovuzlik ustidan ezgulikning, tun ustidan kunning, zulmat ustidan yorug'likning tantanasini ko'ramiz. Bu kurash Navro'z bilan bog'liq afsona, rivoyat, qo'shiq, maqol va aytimlarning qat-qatida turli xil obrazlarda, ramzlarda muhrlanib qolgan.

Ranglar inson hayotida shu qadar muhim o'rin tutadiki, qadim miflardan tortib, to bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asar namunalarining barchasida ranglar bilan bog'liq timsoliy talqinlarni, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ranglar jilosini ko'ramiz.

Ranglar bilan bog'liq tasavvurlar bizda kecha yoki bugun o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Xalqimizning ranglarga munosabatining tarixi juda qadimiy. Qaysidir ma'noda u Navro'z bilan bog'liq, desak, mubolag'a emas. Zero, Navro'z haqidagi qo'shiq bo'ladimi, urf-odat, marosim yoki xalq o'yinlari, tomosha san'ati — barchasida rangga alohida urg'u berilgan.

Misol uchun, oddiygina kashtachilikni olib qaraylik. Ularda quyosh ramzi bilan bog'liq tasvirlar alohida o'rin tutadi. Kashta va so'zanalardagi asosiy mavzu aynan quyosh bilan bog'liq. Chunki hayotda, tabiat va inson munosabatida quyosh juda muhim rol o'ynagan. So'zanalarda fasllar almashinuvi, chiqayotgan va botayotgan quyosh tasviri an'anaviy ramzlarda muhrlangan. Shuning uchun ham Navro'z bilan bog'liq barcha holatda qizil, sariq, yashil, oq ranglar talqini ustunlik qiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo
tanloviga

Ranglar bilan bog'liq joy nomlari, ismlar, tilimizdagi qo'shimchalar — bularning barchasi nafaqat azaliy qadriyatimiz bo'lgan Navro'zning mazmun-mohiyatini, balki badiiy merosimiz, folklor va yozma adabiyot namunalaridagi ranglar falsafasini anglashimizga yaqindan yordam beradi.

Navro'z bilan bog'liq qarashlar xalqning qadimiy bilim, ulkan hayotiy tajribasi edi. Davrlar o'tishi bilan bu bilim tizimga solinib, hayotga uyg'un, hamohang holda ezgu qadriyat sifatida avlodlarga meros qoldirilgan. Biz Navro'zni qancha ko'p o'rgansak, uning tarixi shunchalar teran ekanini yanada ko'proq anglab boraveramiz.

Istiqlolga erishganimizdan keyin Navro'z tamomila yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Biz zulmatdan quyoshli kunlarga, yorug'likka chiqdik, oydinlik, totuvlik, farovonlik yo'lini tutdik.

Navro'z — tun bilan kunning tenglashishi, xaosning kosmosga aylanishi, ya'ni tartibsizliklarga tartib berilishi, qish davrida uyquga ketgan urug'ning nish otishi, quloq chiqarishi, yangi davr, yangi ko'klam, yangi ko'tarilish va yuksalishning boshlanishi, degani.

Mamlakatimiz tarixi, Navro'z shodiyonasi, tantanalari bilan bog'liq. Yurtimizdagi o'zgarishlar, yuksalishlar Navro'zga o'xshash qadriyatlarimiz bilan uyg'un va hamohang. Biz sho'ro sirtmog'idan qutulib, ozod va mustaqil davlat bo'ldik. Ta'bir joiz bo'lsa, qahraton qishdan quyoshli kunlarga chiqdik, parokandalikdan milliy jipslik, milliy birdamlik, tinchlik, osoyishtalik, bugungi taraqqiyot va yuksalishlarga erishdik. Bunda, albatta, milliy qadriyatlarimiz qanot bo'ldi, ruhiyatimizga kuch va quvvat berdi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz qaroriga muvofiq, Navro'z umumxalq sayli sifatida keng nishonlanmoqda. Bu bilan yana Navro'zning qadim va asl o'zaniga, ildiziga yuz buryapmiz. Chunki qadimda ham Navro'z keng dala-qirlar, tog'lar, bog'lar qo'ynida butun elu ulus bilan birgalikda nishonlangan. Bunday sayillarda oddiy dehqon ham, amaldor ham — barcha birdek ishtirok etgan, Navro'zning tantanali kutib olinishiga o'z hissasini qo'shgan. Xalq o'zaro birlikni, totuvlikni yana bir karra his qilgan.

Shu ma'noda, aytish mumkinki, Navro'z — tinchlik, totuvlik, farovonlik bayrami. Millati, dinidan qat'i nazar, shu yurtda yashayotgan barcha millat, elat, keksayu yosh uchun birdek aziz bayram.

Bu bayram oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha va tasavvurlari, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, millat bilan ulg'ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan bayram.

Dunyoning turli burchaklarida yaqin, olis o'lkalarda talato'plar, qirg'inlar, bo'linishlar, parokandaliklar, tanazzullar yuz berayotgan bir davrda tinch, osoyishta hayot kechirib, milliylikka suyanib, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lab, ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal bilan yashayotgan yurtning istiqlolini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan xalqning bayramlari boqiy, shodligi, quvonchi hamisha bardavom bo'laveradi.

**Jabbor ESHONQULOV,**
**Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor.**

Anjuman

## SENI MADH ETAMAN, JONAJON VATAN!

*Aholi va yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish borasidagi sa'y-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Mudofaa va Madaniyat vazirliklari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida dastlab poytaxtimizdagi "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi va "Turkiston" saroyida boshlangan "Vatan manzumasi" deb nomlangan adabiy-ma'rifiy tadbirlar, teatrlashtirilgan nazm va navo kechalari butun respublikamiz bo'ylab o'tkazib kelinmoqda.*

Muhimi, bu adabiy-ma'rifiy tadbirlar auditoriyasi qisqa vaqt ichida mamlakatimiz yoshlarining juda katta qismini o'ziga jalb qildi.

Poytaxtimizdagi "Turkiston" san'at saroyida bo'lib o'tgan navbatdagi "Vatan manzumasi" nomli adabiy-ma'rifiy tadbirda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi ansambli xonandalari tomonidan Vatanni madh etuvchi she'r va qo'shiqlar ijro qilindi. Shuningdek, tadbirda mamlakatimizdagi tinchlik, osoyishta hayot, hamjihatlik va farovonlikni ifodalovchi videolavhalar, teatrlashtirilgan badiiy kompozitsiyalar namoyish etildi. Ona-Vatan, tinch va osuda hayotimizni o'z jonidan aziz bilgan mard harbiylarning tabarruk xotirasi yodga olindi.

Tadbirda she'riyatimiz darg'alari — Halima Xudoyberdiyeva, Erkin Vohidov, Sa'dulla Hakim, Mahmud Toir ijodiga mansub Vatan haqidagi she'rlar o'qildi. Tarixda elu yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun kurashgan To'maris, Barchinoy, mohir mergan sifatida nom qozongan Zebo G'aniyeva singari xotin-qizlarga bag'ishlangan she'rlar davraga yanada shukuh bag'ishladi. Binobarin, bugun ham milliy armiyamiz tizimida ularning yuzlab izdoshlari Vatanimiz xavfsizligini ta'minlash yo'lida yigitlar bilan yonma-yon xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining "Barchamiz, eng avvalo, Vatan himoyachisi, tinchlik posboni bo'lishimiz zarur!" degan chuqur ma'noli so'zlarini o'ziga shior qilib olgan harbiylarimiz Vatan sarhadlarini qo'riqlashda hamisha hushyor.

O'z xizmat vazifasini o'tash chog'ida halok bo'lgan Vatan himoyachilarining farzandlari — ota kasbini tanlagan yigit-qizlarning chiqishlari yig'ilganlarni g'oyat ta'sirlantirdi.

— Bu kabi adabiy-ma'rifiy kechalar yurtimiz posbonlari bo'lmish harbiylarni, yoshlarni



Vatanga sadoqat bilan yashashga undaydi, har birimizni yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalikning qadriga yetishga, mustaqilligimizni mustahkamlashga hissa qo'shishga da'vat qiladi, — deydi O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti 2-bo'lim rahbari G'ayrat Zamonov. — Kecha dasturidan o'rin olgan rang-barang chiqishlar, san'atkorlarning kuy-qo'shiqlari, el sevgan shoirlarning oila, elu yurt, tinchlik, sevgi-muhabbatga oid she'rlari, harbiylarimiz kayfiyatini ko'taradi. Ularga g'ayrat-shijoat baxsh etadi. Zero, yoshlarni yurtga, o'z xalqiga sodiq, vatanparvar, ertangi kun uchun mas'uliyatni teran anglaydigan insonlar etib voyaga yetkazish Vatan kelajagini belgilaydi.

Bunday badiiy-musiqiy dasturlar O'zbekistonimizni ko'z qorachig'idek asrashga, tinch-osoyishta, to'kin, farovon kunlarning qadriga yetishga da'vat etishi bilan ahamiyatli bo'lmoqda.

**Nurulloh OSTONOV**
**("Xalq so'zi").**

Infratuzilma

## Jizzaxda zamonaviy shifoxona quriladi

*Hindistonning "India International Super Speciality Hospital" kompaniyasi direktori doktor Jayaram Paratsarati boshchiligidagi delegatsiya Jizzaxda bo'lib, viloyat hokimi E. Saliyev bilan uchrashdi.*

Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi bugungi hamkorlik haqida so'z yuritilib, hindistonlik tadbirkorlar iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida samarali faoliyat olib borayotgani alohida ta'kidlandi.

Kompaniya direktori ushbu hamkorlik manfaatli bo'lishini mamnuniyat bilan qayd etarkan, Jizzax shahrida qiymati 1 million AQSH dollariga teng zamonaviy shifoxona tashkil etish borasida o'z taklifini bildirdi. Ayni chog'da Jizzax shahrida ko'p tarmoqli shifoxona tashkil etish orqali viloyatdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarga ko'nikmalar berish borasida o'z fikrlarini bayon qildi.

Uchrashuv chog'ida, shuningdek, viloyatda barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivi hududida ham yirik shifoxona qurish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Yakunda mazkur yo'nalishlarda hamkorlik qilish borasida memorandum imzolandi.

**Said DONISHEV**
**("Xalq so'zi").**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi jamoasi Konstitutsiyaviy sudda uzoq yillar faoliyat yuritgan, sud faxriysi, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

**Genjemurat PIRJANOVning**

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur ta'ziya izhor qiladi.

REKLAMA

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar
DIQQATIGA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-iyuldagi «Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha huquqiy eksperimentni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-236-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ Kuzatuv kengashining 20.09.2023-yildagi 6-sonli majlisi qarori asosida «Hududiy elektr tarmoqlari» AJning 01.03.2024-yildagi 28-sonli buyrug'i bilan «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ Toshkent shahar hududiy filiali «Toshkent shahar elektr tarmoqlari» MCHJ (STIR: 311 162 458) etib qayta tashkil etilayotganligini e'lon qilamiz.

Yuridik manzil:
Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Muxtor Ashrafiy nomidagi MFY,
Muxtor Ashrafiy ko'chasi, 1-muyulish, 9-uy.

Pochta manzili:
100076, Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Muxtor Ashrafiy nomidagi MFY, Muxtor Ashrafiy ko'chasi,
1-muyulish, 9-uy.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.52 Topshirildi — 00.50 1 2 3 4 5 6